

Soxibova Nigora Sadritdinovna

Toshkent davlat agrar universiteti Ipakchilik va tutchilik kafedrasida katta

o'qituvchi Email:sokhibova2019@bk.ru

Zoidov Mahammadjon Botirjon o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti Ipakchilik va tutchilik yo'nalishi

21-80 guruh talabasi

Annotasiya: *Toshkent viloyati sharoitida navli tut so'qmoqlaridan fermer xo'jaliklarida buta plantatsiyalarini barpo etish to'g'risidagi ma'lumotlar Ipak qurti ozuqa bazasini yaxshilanishiga va tut barglari hosilining 1 gektardan 10-12 tonnaga ko'payishiga, urug' tut plantatsiyasini yaratishga olib keladi.*

Kalit so'zlar: *Tut daraxti, novda, yog'ochlashgan, xalqalangan, qalamcha, barg, navdor, duragay, tutzor, rentabellik.*

Аннотация: *В статье проведены данные о закладке кустовых плантаций в фермерских хозяйствах из сортовой шелковицы черенками в условиях Ташкентской области, которые приводят к улучшению кормового фонда тутового шелкопряда и увеличение урожая листа шелковицы с 1 гектара на 10-12 тонны, чем создание плантации из семенной шелковицы.*

Ключевые слова: *тутовое дерево, ветка, одревесневший, черенки, лист, сорт, гибрид, плантация, урожайность.*

Annotation: *In the article is given the information about planting mulberry groves in the farmers plants from the sorts of mulberry tree in the conditions of Tashkent region. This information helps to improving feeding fond of mulberry tree and increasing the harvest of the leaves of mulberry from 1 hectare on 10-12 tons' than creating the plants of seeding mulberry.*

Xozirgi kunda respublikamizdagi mavjud tut maydonlarining atigi 8-10 foizini serxosil navdor tutlar tashkil etadi xolos. U xam bo'lsa yillar mobaynida duragay ko'chatlarga payvand qilinib yetishtirish evaziga erishilgan. Navdor tut ko'chatlarini payvand qilish yo'li bilan yetishtirish uchun 3 yil kerak bo'ladi, bundan tashqari juda katta mexnat va xarajatlar sarflanadi. Shuning uchun xosildor tut daraxtlarini ko'paytirish uchun agrotexnikasi jixatidan ancha arzonga tushadigan usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ana shunday usullardan biri xosildor tut navlarini qalamchalaridan ko'paytirishdir. Oziqa beruvchi tutzorlar uchun navdor tut ko'chatlarini qalamchasidan bir yilda yetishtirish mumkin. Yoki navdor tut qalamchalaridan tashkil qilingan buta tutzorlar tashkil etilgach ikkinchi yiliyoq ipak qurti uchun barg xosili olish mumkin. Olinadigan barg xosili birinchi yili gektar boshiga 3-4 tonnani, ikkinchi yili esa 10-12 tonnani tashkil etadi. Shu sababli fermer xujaliklarida navdor tutlar qalamchalaridan buta tutzorlar tashkil etish. Xozirgi kunda pillachilik soxasida eng dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Shuning uchun ilmiy tadqiqot ishlarimizni shu yo'nalishga qaratdik va dastlabki ijobiy natijalarga erishdik.[1],[2]

Tadqiqot ishlari Toshkent davlat agrar universiteti tajriba xo'jaligi xududi sharoitida olib borildi. Tajriba uchun navdor tutlar (Tojikiston urug'siz, Jarariq-9, Jarariq-10, O'zbekiston) ning qalamchalaridan, nazorat uchun duragay tutdan foydalanildi. Tut qalamchalarining rivojlanishini iqlim sharoiti bilan uzviy bog'likdir. Bunda o'simlik tanasi va ildizlaridagi ortiqcha (zapas) oziq moddalar, shuningdek, ularning tarkibida suvning mavsum davomida o'zgarib turishi katta e'tiborga loyik. Bu borada K.Raxmonberdiyevning (1980) qalamcha tayyorlash muddatlarini (15-iyuldan 10-avgustgacha) o'rganish ustidagi kuzatishlarni misol keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi, Fevralning oxiri va mart oyi boshlarida tayyorlangan qalamchalar ekishga tayyor qilingan kuni o'tkazilganida, ularning ildiz otishi boshqa muddatlarda

tayyorlangan qalamchalarning ildiz olishiga nisbatan eng yuqori bo'lgan. [3,4,5].Bahorning kelishiga qarab fevral oyining oxiri, mart oyining birinchi o'n kunligida qalamcha tayyorlanadigan bir yillik novdalar qirqib olinib, 3-4 xafta nam tuproqqa 50-60 sm chuqurlikda ko'mib kuyish va tuproqda mu'tadil harorat va xavo sharoiti vujudga kelishi bilan o'tkazilsa maqsadga muvofik buladi (M.Xibbimov, 1997). Buta tutzorlarni barpo etish uchun tuproqni tayyorlash ishlari yerni kuzda shudgorlash, bahorda tekislash va qalamchalarni o'tkazish uchun egatlar olishdan iborat bo'ladi. Bunda yog'ochlashgan bargsiz qalamchalar gorizontal usulda qator oralarining kengligi 4x0,5 m sxemada ekiladi. Tuproq yetilib, ob-xavo (tuproqda 18-20°S) mo'tadil bo'lgach, qalamchalar pushtalar ustiga 5-6 sm chuqurlikda (agar qumoq tuproq bo'lsa 8-12 sm) yotik xolatda joylashtiriladi. Qalamchalar ekilganidan keyin qatqalok bosishining oldini olish maqsadida egatlar pushtasiga kipik sepiladi. Dastlabki bir yarim ikki oy mobaynida tutzordagi jo'yaklardan suvni jildiratib oqizish orqali qalamcha joylashtirilgan pushta doimiy nam xolatda ushlanadi. Bu xildagi sug'orish yog'ingarchilik bo'lgan paytlarda o'tkazilmaydi. Qalamchalarni ildiz olishi uchun ularni yetti o'n marta sug'orish lozim [6]. O'gitlash esa ikki muddatda o'tkaziladi va may oyining birinchi yarmida gektariga sof xolda 45 kg azot, 60 kg fosfor, bir oydan keyin yana 45 kg azot beriladi. Qator oralig'iga traktor kultivatori bilan ishlov berilib, o'simlik orasi esa ketmon bilan chopib yumshatiladi. Yuqorida qayd etilgan jarayonlarni tajribalarimiz davomida amalga oshirib, qalamchalardan buta tutzor tashkil qilinishi natijasida ularning ko'karish - ildiz otish xolati qanday kechishi aniqlanadi, bu to'g'ridagi ma'lumotlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1 -jadval

Navdor xalqalangan bargsiz qalamchalardan buta tutzor tashkil qilinganda ularni ko'karish va ildiz otish jarayoni natijalari

Tut navlari	Ekilgan qalamcha uzunligi, sm	Qalamchani ekilgan muddati	Ekilgan qalamchalar soni, dona	Qalamchalarni ildiz olish
--------------------	--------------------------------------	-----------------------------------	---------------------------------------	----------------------------------

				foizi, %
1. Tojikiston urug'siz	40	mart	100	81
2. Jararik-9	40	mart	100	83
3. Jararik-10	40	mart	100	84
4. Uzbekiston	40	mart	100	82
5. Duragay (qiyoslovchi)	40	mart	100	73

1-Jadvalda keltirilgan raqamlar shuni ko'rsatadiki, navdor tutlardan tayyorlangan qalamchalar buta tutzor tashkil etishda foydalanilganda ularning ildiz otishi 80-85% ni tashkil etib, boshqa navlarnikiga nisbatan 7-15% foizga yuqori bo'lishi, ayniqsa Jarariq- 9 va Jarariq-10 navlaridan tayyorlangan qalamchalarning yaxshi ko'karishi (11-14% ga yuqori) ma'lum buldi. Xulosa qilib aytganda, navdor tutlarni doimiy o'sish joyida qalamchasidan ko'paytirish usuli qo'llanilganda ularda ekilishidan foydalanishgacha o'sadigan davrning qisqa bo'lishini va foydalanishning ikkinchi-uchinchi yiliyoq yuqori barg xosili olish imkonini beradi. Chunonchi, kalamchalar ekilgach, keyingi yili hosil berib, fermer xo'jaliklarida barg tanqisligining oldini olish imkonini beradi. O'z ildiziga ega bo'lgan buta tutzorning samaradorligi ularni keng qatorlab joylashtirish, qator oralarida paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini ekib foydalanish yanada orgadi. Odatdagi o'stirilayotgan tutzorning qator oralaridan faqat birinchi yili, ya'ni qalamchalar ekilgan yili foydalanish mumkin. Buta tutzorlarni qalamchalardan barpo etishda mexnat xarajatlari pul bilan xisoblanadi, ularni (urug'dan) nixolchadan barpo etilgandagiga qaraganda 15 marta kamayadi, qalamchlarni ekishdan toki foydalanishga qadar o'tadigan davr ikki yilga qisqaradi, buta tutzor ikkinchi yili foydalanishda xosil to'plash uch-turt barobariga ortadi. Natijada, fermer xo'jaliklari va pillachilik soxasi iqtisodiy zarar ko'rishdan saqlanib, rentabellik

fermer xo'jaliklari va "Agro Pilla" MChJlar uchun daromad manbaiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев У. – “Тутчилик”, “Меҳнат”, Т. 1991.
2. Раҳмарбердиев К., Мухамеджанова Ш. – Тут селекцияси, “Меҳнат”, 1988
3. Раҳманбердиев К., Хиббимов М. – Тут дарахтини қаламчасидан купайтириш, “Меҳнат”, 1997.
4. Sokhibova N S, Nazirova M.I, Solieva M B. “Influence of rearing silkworms with productive mulberry leaves on the biological indicators of silk gland and raw silk effectiveness”, Life Sciences and Agriculture Б.87-90 ISSN2181-0761. -ISSN2181-0761, 2020-yil. [doi: 10.24411/2181- 0761/2020-10032](https://doi.org/10.24411/2181-0761/2020-10032).
5. Rahmonberdiev V.K, Sohiova N.S, Nurov M.M, Alikulova D.B ,“Study of the chemical composition of the spring leaf and the productivity of mulberry varieties in the conditions of the navai region steppe” European international journal of multidisciplinary research and management studies. -issn: 2750-8587 2022-yil. [doi: https://doi.org/10.55640/ejmrms-02-05-28](https://doi.org/10.55640/ejmrms-02-05-28)
6. Sokhibova N.S, Khaknazarova U.U, Ibragimov T Sh, Abduganieva N. S. “Studying the economic characteristics of mulberry seedlings propagated in a new way in the tashkent region”, European international journal of multidisciplinary research and management studies. -issn: 2750-8587, 2022-yil. [doi: https://doi.org/10.55640/ejmrms-02-06-20](https://doi.org/10.55640/ejmrms-02-06-20)
7. Sokhibova S.N, Khaknazarova U.U, Turaeva Sh D, Nuraddinova M J. “Effect of mulberry silkworm feeding on diseased mulberry leaves on worm viability and cocoon productivity”, European international journal of multidisciplinary research and management studies. -issn: 2750-8587, 2022-yil. [doi: https://doi.org/10.55640/ejmrms-02-06-21](https://doi.org/10.55640/ejmrms-02-06-21)